

Shoumarov G'ayrat Baxramovich,
psixologiya fanlari doktori, akademik

Atadjanov Mamirjon Yusupovich,
psixologiya fanlari nomzodi, professor

PSIXOLOGIYADA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR (NAZARIY-TAHLILIIY TADQIQOT)

UO'K 159.9

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_4_1](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_4_1)

SHOUMAROV G'.B., ATADJANOV M.YU. PSIXOLOGIYADA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR (NAZARIY-TAHLILIIY TADQIQOT)

Mazkur maqolada psixologiya fanining fundamental bazasi va fundamental tadqiqotlarning nazariy ahamiyati tahlil qilingan. Fundamental bilimlarning universallik, teranlik, barqarorlik va nazariylik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, psixologiyadagi asosiy fundamental tadqiqot yo'nalishlari, ong muammosi, kognitiv jarayonlar, shaxs, rivojlanish, emotsiya va motivatsiya, neyrobiologik asoslar hamda ijtimoiy xulq-atvor masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari fundamental izlanishlar amaliy sohalar uchun muhim ilmiy asos bo'lishini ko'rsatadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: fundamental tadqiqot, psixologiya, ong, kognitiv jarayonlar, motivatsiya, neyropsixologiya, shaxs, ijtimoiy xulq-atvor.

ШОУМАРОВ Г.Б., АТАДЖАНОВ М.Ю. ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ПСИХОЛОГИИ (ТЕОРЕТИКО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ)

В данной статье проанализирована фундаментальная база психологии и теоретическая значимость фундаментальных исследований. Выявлены особенности универсальности, глубины, устойчивости и теоретичности фундаментальных знаний. Также были рассмотрены основные направления фундаментальных исследований в психологии, проблемы сознания, когнитивные процессы, личность, развитие, эмоциональность и мотивация, нейробиологические основы и вопросы социального поведения. Результаты исследования показывают, что фундаментальные исследования являются важной научной основой для практических занятий.

Ключевые слова и понятия: фундаментальное исследование, психология, сознание, когнитивные процессы, мотивация, нейropsихология, личность, социальное поведение.

SHOUMAROV G.B., ATADZHANOV M.YU. FUNDAMENTAL RESEARCH IN PSYCHOLOGY (THEORETICAL AND ANALYTICAL RESEARCH)

This article analyzes the fundamental basis of psychology and the theoretical significance of basic research. Features of universality, depth, stability and theoricity of fundamental knowledge are revealed. The main directions of fundamental research in psychology, problems of consciousness, cognitive processes, personality, development, emotionality and motivation, neurobiological foundations and issues of social behavior were also considered. The results of the study show that basic research is an important scientific basis for practical exercises.

Key words and concepts: fundamental research, psychology, consciousness, cognitive processes, motivation, neuropsychology, personality, social behavior.

Kirish.

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti fundamental bilimlar tizimiga asoslanadi. Fanning fundamental bazasini ma'lum bir fan sohasining eng asosiy, chuqur va universal bilimlari, tushunchalari va qonunlari tashkil qiladi. Bu ma'lumotlar amaliyotga darhol qo'llanmasligi mumkin, lekin butun fan rivoji uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shuning uchun fanning fundamental bazasining asosiy xususiyatlari deyarli har bir holatda qo'llaniladigan umumiylik, hodisalarning ichki mohiyatini tushuntiradigan teranlik, uzoq vaqt amal qilib o'zgarmaydigan barqarorlik va nazariylikdan tashkil topadi.

Fundamental tadqiqotlar tabiat, jamiyat yoki tafakkurning eng asosiy qonunlarini ochishga qaratilgan ilmiy izlanishlardir. Ularning asosiy maqsadi nafaqat foyda olish, balki yangi bilim yaratishdan iborat. Fundamental tadqiqotlar tabiat qonunlarini o'rganishni nazarda tutuvchi olam qanday mavjud bo'ladi, modda va energiya qanday harakat qiladi, degan savollarga javob izlash, yangi nazariyalarga asos bo'ladigan ilmiy tushunchalarni kengaytirish, mavjud nazariyalarni qayta ko'rib chiqish, noma'lum hodisalarni tushuntirish uchun ilgari izohlanmagan jarayonlarni o'rganish, yangi kashfiyotlar uchun asos yaratish, ilmiy muammolarning ildizini topish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Fundamental baza fanning "asosi" bo'lsa, fundamental tadqiqot shu asosni yaratish va kengaytirish jarayonidir. Amaliy tadqiqotlar qanday amalga oshiramiz, degan savolga javob topsa, fundamental tadqiqotlar bu jarayon nima va u qanday ishlaydi, degan savollarga javob izlaydi.

Psixologiya fanida fundamental tadqiqotlar yuzaki xulq-atvorni emas, balki inson ruhiyatining asosiy mexanizmlari va qonuniyatlarini ochishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ya'ni fundamental tadqiqotda savol inson nima qiladi, deb emas, balki nima uchun va qanday qilib shunday qiladi, deb qo'yilishi kerak. Bu xuddi tergovchi bilan kriminal psixolog o'rtasidagi farqqa o'xshagan, tergovchi nima bo'ldi, degan savol qo'ysa, kriminal psixolog nima uchun shunday bo'ldi, degan savol qo'yadi, hodisaning sababini turli omillar, yoshning birmuncha oldingi davrlaridan qidiradi. Shu jihatdan ushbu maqolada psixologiyadagi fundamental tadqiqotlar ahamiyati tahlil qilinadi.

Umumlashgan nazariyaga ko'ra psixologiyadagi fundamental tadqiqotlar quyidagi muammolarni qamrab olishi va ular doirasidagi savollarga javob topishi kerak. Psixikaning tabiati va ong muammosi doirasida inson ongi nima, u qanday shakllanadi va qanday ishlaydi, degan savollarga javob izlash, ong va ongsizlik sohaslarini o'rganish. Kognitiv jarayonlar, aqliy faoliyat sohasida inson qanday fikrlaydi, eslab qoladi va qaror qabul qiladi, xotira qanday ishlaydi, diqqat nimalarga bog'liq, inson qarorni qanday qabul qiladi, kabi savollarga javob izlash. Shaxs va individual farqlar muammolari doirasida nima uchun odamlar bir-biridan farq qiladi, temperament, xarakter va qobiliyatlar qanday shakllanadi, degan savollarning mohiyatini tekshirish. Rivojlanish psixologiyasi masalalarida inson tug'ilgandan qarilikkacha qanday o'zgaradi, bolalikdagi tajriba katta yoshdagi xulqqa qanday ta'sir qiladi, degan savollarni muhokama qilish. Emotsiyalar va motivatsiya sohasi muammolari doirasida inson his-tuyg'ulari qayerdan paydo bo'ladi va ularni nima boshqaradi, insonni nima harakatga keltiradi, kabi savollarga javob izlash, qo'rquv, quvonch, stress, ichki va tashqi motivatsiya kabi masalalarni o'rganish. Xulq-atvorning neyrobiologik asoslari muammolari doirasida psixik jarayonlar miya bilan qanday bog'liqlikda, miyadagi jarayonlar fikr va his-tuyg'ularni qanday boshqaradi, oliy nerv faoliyati qanday ishlaydi, degan masalalarni o'rganish. Ijtimoiy xulq-atvor sohasida inson jamiyatda qanday harakat qiladi, guruh, madaniyat va muhit insonga qanday ta'sir qiladi, kabi savollarga javob izlash. Demak psixologiyada fundamental tadqiqotlar inson ongi va psixikasining mohiyatini, fikrlash, his qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini, shaxs va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganishi kerak. Shu tadqiqotlar keyinchalik ta'lim, tibbiyot, biznes kabi amaliy sohalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, fundamental bilimlarning asosiy xususiyatlari universallik, teranlik, barqarorlik va nazariylikdan iborat bo'lishi kerak (Kuhn, 1962; Popper, 2002). Ushbu xususiyatlar fan taraqqiyotida barqaror konseptual tizimni ta'minlaydi. Fundamental tadqiqotlar tabiat, jamiyat va tafakkurning eng asosiy qonunlarini o'rganishga qaratilgan hamda ularning asosiy maqsadi yangi bilimlar yaratishdan iborat bo'lib (OECD, 2015) ular "nega?"

va "qanday ishlaydi?" degan savollarga javob izlaydi, bu esa fundamental tadqiqotlarning amaliy tadqiqotlardan asosiy farqi hisoblanadi.

Psixologiya fanida fundamental tadqiqotlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki inson ongi va psixikasining tabiati hali to'liq o'rganilmagan murakkab tizimdir. Shu bois, psixologiyadagi fundamental izlanishlar inson xulq-atvorining tashqi ko'rinishini emas, balki uning ichki mexanizmlarini ochishga qaratilgan bo'lishi lozim (Gleitman et al., 2011). Ushbu maqolaning maqsadi ham psixologiya fanining fundamental bazasi va tadqiqotlarining nazariy ahamiyatini tahlil qilish, ularning asosiy yo'nalishlarini yoritish hamda fan taraqqiyotidagi o'rnini asoslab berishdan iborat.

Metodologiya.

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy yondashuv asosida amalga oshirildi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ilmiy manbalar sifatida psixologiya va fan falsafasiga oid klassik va zamonaviy adabiyotlar tanlandi. Tadqiqot jarayonida fundamental tadqiqot tushunchasi tahlil qilindi, psixologiyadagi asosiy muammolar tizimlashtirildi, nazariy yondashuvlar taqqoslandi.

Tadqiqotda klassik falsafiy va ilmiy nazariyalar (Popper, Kuhn), zamonaviy psixologiya darsliklari va tadqiqotlari (Gleitman et al., 2011, Mers & DeWall, 2020), xalqaro tashkilotlar materiallari (OECD, 2015). kabi manbalardan foydalanildi. Tahlil jarayonida fundamental tadqiqotlarning mazmuni, vazifalari va psixologiya sohasidagi asosiy muammolari tizimli ravishda o'rganildi.

Natijalar.

Tahlil natijalariga ko'ra, psixologiyadagi fundamental tadqiqotlar quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

1. Psixikaning tabiati va ong muammosi. Inson ongi psixologiyaning eng murakkab va markaziy muammolaridan biri bo'lib ongning tabiati, uning shakllanishi va faoliyati masalalari hali ham bahsli hisoblanadi. Ong va ongsizlik tushunchalari psixik jarayonlarni tushinishda asosiy o'rin tutadi. Demak, psixikaning tabiati va ong muammosini tushuntirib beruvchi, psixologiyaning markaziy muammolaridan hisoblangan inson ongi va ongsizlik jarayonlari zamon-

aviy psixologik fundamental tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi.

2. Kognitiv jarayonlar. Kognitiv psixologiya insonning fikrlash, xotira, diqqat va qaror qabul qilish jarayonlarini o'rganadi. Kognitiv psixologiya doirasida xotira modellari, diqqat mexanizmlari va qaror qabul qilish nazariyalari ishlab chiqilgan (Baddeley, 2007). Shuning uchun fikrlash, xotira, diqqat va qaror qabul qilish mexanizmlarini tushuntiradigan kognitiv jarayonlar fundamental tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega.

3. Shaxs va individual farqlar. Insonlar o'rtasidagi farqlar temperament, xulq, xarakter va qobiliyatlar orqali tushuntiriladi. Shaxs nazariyalari inson individualligini izohlashga xizmat qiladi. Shaxs va individual farqlar kabi inson individualligini belgilaydigan temperament, xarakter va qobiliyatlar muammolari psixologiyada xali ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

4. Rivojlanish psixologiyasi. Inson hayoti davomida psixik o'zgarishlarini o'rganish muhim yo'nalish hisoblanadi. Bolalik tajribasining katta yoshdagi xulqqa ta'siri isbotlangan (Piaget, 1952). Shu bilan birga zamonaviy raqamli muhitda insonning hayot davomidagi psixik o'zgarishlarini tahlil qilish fundamental tadqiqotlarda asosiy, hal qiluvchi yo'nalish sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

5. Emotsiyalar va motivatsiya. Inson faoliyatini harakatga keltiruvchi omillar emotsiyalar va motivatsiya bilan bog'liq. Motivatsiya nazariyalari inson raftori va qarorlarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Insonni harakatga keltiruvchi ichki va tashqi omillardan iborat emotsiyalar va motivatsiyalarning yil sayin, ayniqsa transformatsiyalashayotgan dunyoda dolzarbligi ortib bormoqda.

6. Neyrobiologik asoslar. Psixik jarayonlar miya faoliyati bilan uzviy bog'liq. Neyropsixologiya miya va psixika o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Miya va psixik jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlik tadqiq etiladigan psixikaning neyrobiologik asoslari sohasi afsuski so'nggi yillarda eng kam e'tibor qaratiladigan yo'nalishga aylanib qoldi.

7. Ijtimoiy xulq-atvor. Insonning jamiyatdagi harakati guruh, madaniyat va muhit ta'sirida shakllanadi. Ijtimoiy psixologiya ushbu jarayonlarni tadqiq etadi. Transformatsiyalashayotgan dunyo sharoitida insonning jamiyatdagi harakati

va unga guruhning ta'sirini o'rganadigan ijtimoiy xulq-atvor psixologiyasining dolzarbligi tobora ortib bormoqda.

Muhokama.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, fundamental tadqiqotlar psixologiya fanining asosini tashkil etib inson psixikasining chuqur mexanizmlarini ochishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy sohalar uchun asos yaratadi. Masalan, kognitiv tadqiqotlar ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qilsa, neyropsixologik izlanishlar tibbiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, motivatsiya va emotsiyalar bo'yicha tadqiqotlar biznes va boshqaruv sohasida keng qo'llaniladi.

Karl Popper ta'kidlaganidek, ilmiy bilim doimo sinov va tanqid orqali rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, fundamental tadqiqotlar mavjud nazariyalarni qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish imkonini beradi. Thomas Kuhn esa fan taraqqiyotini paradigmalar almashinuvi sifatida tushuntiradi, bu esa fundamental tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Lekin, shuni hisobga olish kerak, fundamental tadqiqotlarning natijalari ko'pincha uzoq muddatda namoyon bo'ladi, tadbirkorlik nuqtai-nazaridan ular darrov foyda keltirmaydi. Bu esa ularni moliyalashtirish va amaliy qiymatini

baholashda qiyinchiliklar tug'diradi. Ammo tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, aynan fundamental izlanishlar eng katta ilmiy yutuqlarga asos bo'lgan.

Xulosa.

Demak, psixologiya fanining fundamental bazasi inson psixikasining asosiy qonuniyatlarini qamrab oladi. Fundamental tadqiqotlar esa ushbu bilimlarni shakllantiradi va rivojlantiradi. Ularning ahamiyati yangi nazariyalar yaratish, inson psixikasini chuqur tushunish, amaliy sohalar uchun asos yaratishda namoyon bo'ladi. Shu sababli, fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish psixologiya fanining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Maqolada fundamental tadqiqot tushunchasi klassik ilmiy paradigmalar asosida yoritildi. Xususan, Karl Popper va Thomas Kuhn g'oyalariga tayanilgan holda ilmiy bilimning tanqid va tekshirish orqali rivojlanishi, paradigmalar almashinuvi orqali fan taraqqiyoti kabi konsepsiyalar ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, psixologiya fanining fundamental bazasini tashkil qiluvchi ong, kognitiv jarayonlar, shaxs, rivojlanish, motivatsiya, neyrobiologiya, ijtimoiy xulq-atvor yo'nalishlari zamonaviy psixologiya fanining xalqaro klassifikatsiyasiga mos xolda tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baddeley, A. Working Memory, Thought, and Action. - Oxford University Press. 2007.
2. Gleitman, H., Gross, J., & Reisberg, D. Psychology. - 2011.
3. Kuhn, T. The Structure of Scientific Revolutions. - 1962.
4. Mers, D. G., & DeWall, C. N. Psychology. - Worth Publishers. 2020.
5. OECD. Frascati Manual: Guidelines for Collecting and Reporting Data on Research and Experimental Development. 2015.
6. Piaget, J. The Origins of Intelligence in Children. - 1952.
7. Popper, K. The Logic of Scientific Discovery. - 2002.